Xolmirzayev Baxtiyor Nurmirza o‘g‘li
Namangan davlat universiteti o‘qituvchisi

SINFDAN TASHQARI SPORT MASHG‘ULOTLARIDA O‘QUVCHILARNING MILLIY G‘URUR TUYG‘USINI RIVOJLANTIRISHNING MAZMUN VA MOHIYATI

DOI: https://doi.org/10.5281/zenodo.15730756

Annotatsiya. Maqolada umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini takomillashtirishning dolzarbligi va bu jarayonda sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarining tutgan o‘rni ilmiy-pedagogik asosda tahlil qilinadi. Tadqiqotda akmeologik va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida o‘quvchilarda irodaviy, ma’naviy va jismoniy sifatlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan samarali metodlar va pedagogik sharoitlar bayon etilgan. Jismoniy tarbiya va sport orqali o‘quvchilarda milliy g‘urur, sog‘lom turmush tarzi va ijtimoiy faollikni shakllantirish imkoniyatlari ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot natijalari o‘quvchilarning motivatsiyasi, ijtimoiy moslashuvi va jismoniy rivojlanishida sport mashg‘ulotlarining samaradorligini tasdiqlaydi.

Kalit so‘zlar: milliy g‘urur, jismoniy tarbiya, sport mashg‘ulotlari, irodaviy sifatlar, umumiy o‘rta ta’lim

Kirish

Respublikamizning umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarida milliy g‘urur tuyg‘usini takomillashtirish masalalariga alohida e’tibor qaratilib, o‘quvchilarda akmeologik yondashuvlar asosida milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish jarayonida kamolotga erishishlari uchun zarur pedagogik sharoitlarni yaratish, o‘zlarida irodaviy sifatlarni shakllantirish yo‘lida qat’iyat ko‘rsatish, o‘z-o‘zini tarbiyash, ijobiy sifatlarni yanada boyitishga qaratilgan amaliy faoliyatni amalga oshirishni taqozo etmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, “Meni doimo o‘ylantiradigan, tashvishga soladigan yana bir dolzarb masala bu – yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi bilan bog‘liq. Biz bu yo‘nalishda katta ishlarni amalga oshiryapmiz. Ammo ularning samaradorligini yanada kuchaytirish uchun bir qator masalalarga jiddiy e’tibor berishimiz zarur” [4]. O‘quvchilarning irodalilik, g‘alabaga intiluvchanlik, chaqqonlik, o‘zini tuta bilish, chidamlilik kabi sifatlarning rivojlanishi jismoniy tarbiya va sport faoliyatining pedagogik-psixologik ta’lim samaradorligi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchilarda sportchiga xos xarakter xislatlari rivojlanib, so‘ng bu xislatlar uning doimiy xarakteri sifatida namoyon bo‘ladi. Bu esa, o‘quvchilarda milliy g‘urur tuyg‘ularini rivojlantirishda bevosita ma’naviy-axloqiy, jismoniy va irodaviy sifatlarni shakllantirishning dolzarbligini belgilaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-son, 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-son, farmonlari hamda boshqa me’yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi [2; 3].

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida” qonuni (2020-y) hamda Davlat ta’lim standarti talablari asosida barcha ta’lim muassasalarida, xususan, umumiy o‘rta ta’limda jismoniy tarbiya darslari va sport mashg‘ulotlari hamda turli sport musobaqalari muntazam ravishda o‘tkazilib borilmoqda [1]. Bu jarayonlar sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning jismoniy tayyorgarlikni tarbiyalash, ularni kasb-hunar yo‘lida mehnat qilish ona Vatan himoyasiga tayyor qilib tarbiyalashga qaratilishi

bilan integratsion xususiyatga egadir. Jismoniy tarbiya ta'limining asosiy shakli va mazmunini jismoniy tarbiya darslari va sport mashg'ulotlarini tashkil etadi. Keyingi vaqtda bu ikki yo'nalishdagi keng qamrovli va yuksak maqsadlarga qaratilgan ishlarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan mujassamlashgan holda foydalanish orqali amalga oshirish mumkin. Ularning har birida umumiy va maxsus maqsadlarga qaratilgan o'ta masuliyatli ta'lim-tarbiya jarayonlari integratsiyalashib sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashda xizmat qiladi. Mazkur jarayonlarni ilmiy pedagogik jihatdan tahlil etish va asoslash jismoniy tarbiya ta'limining eng muhim muammolardan hisoblanadi.

Jismoniy tarbiya DTS dagi maxsus vazifalarni amalga oshirishda sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida quyidagilarni hal etish maqsadga muvofiq:

o'quvchilarning sog'ligini mustahkamlash, jismoniy tayyorgarligini oshirish va tananing turli tashqi ta'sirlarga chiniqishini ta'minlash;

o'quvchilarning yosh va pedagogik xususiyatlarini hisobga olgan holda turli sport faoliyatlarga tayyorgarlik darajalarini oshirish;

harakat, ko'nikma va malakalarini mustahkamlash;

sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini mazmuni va uni rivojlantiruvchi sifatlar bilan qurollantirish, nazariy bilimlar berish;

jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug'ullanishga odatni shakllatirish, sport vositasida irodali shaxsni tarbiyalash mumkinligiga ishontirish;

o'quvchilarning jismoniy madaniyat tadbirlarini tashkil qilish yo'llariga tayyorlash va safarbar etish;

jismoniy tarbiya darslari, to'garaklardagi sport mashg'ulotlarida ma'naviy-ma'rifiy madaniyat yo'llarini o'rganish va ularga doimo sodiq bo'lib yurish hisoblanadi. (DTS)

Buning uchun sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda quyidagilarni o'rgatish lozim deb topdik, namunalar keltiramiz.

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga doir hukumatning qonunlari va qarorlarini pedagogik jarayonda, ta'lim muhitida yangicha yondashuv asosida olib kirish;

o'quvchilarning jahon sporti, shuningdek, O'zbekiston xalqining jismoniy tarbiya va sport tarixi bilan tanishtirish;

jismoniy tarbiya va sportning tarixi, vujudga kelishi hamda rivojlanish bosqichlarining qonuniyatlarini o'rgatish;

milliy xalq o'yinlari, ularning turlari va mazmuni hamda bugungi kunda ulardan foydalanishning ahamiyati haqida tushuncha berish;

jismoniy tarbiyaning turlari, shakllari, vositalari va usullari haqida tushuncha berish;

ommaviy jismoniy tarbiya va sportni targ'ib qilishga o'rgatish;

o'quvchilarga uzluksiz jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarini bilan shug'ullanishlarini ta'minlash;

jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishda jahonning ilg'or tajribalaridan keng va maqsadli foydalanishga o'rgatish kabilar.

Tadqiqot doirasida olib borilgan tajribasinov ishlari shuni ko'rsatadiki, sinfdan tashqari sport mashg'ulotlarida o'quvchilarning milliy g'urur tuyg'usini rivojlantirishda (motivatsiya), (sportga bo'lgan munosabatlari) va ularni mohiyati o'rganish zarur:

1) bevosita aloqadorlik negizida shakllanadigan tuyg'ular:

o'quvchilarda chiroyli, estetik harakatlardan qoniqish hissi;

o'zgaruvchan vaziyatlarda o'quvchilarning o'zini-o'zi boshqara olishi;

o'quvchilar tomonidan o'z imkoniyatini ko'rsata olish orqali atrofdagilar e'tiborini qozonish [5];

o'quvchilarning aksariyatida nomdor sportchilarga taqlid qilish;

2) bilvosita aloqadorlik negizida shakllanadigan tuyg'ular:

o'quvchilarning chiroyli, kuchli va sog'lom bo'lish istagi;

o'quvchilarda jismoniy imkoniyatlarini

namoyon qilishlariga ota-onalarning xohishi [6].

Adabiyotlar tahliliga ko‘ra, jismoniy tarbiya – ijtimoiy taraqqiyot natijasida ishlab chiqarish, madaniyat fan va sport sohasida yuksak natijalarga erishish imkoniyatini yaratdi. “Jismoniy rivojlanish – tarbiyaning ta’sirida organizmda biologik shakllar va funksiyalarning vujudga kelishi, o‘zgarishi va takomillashuvidir. Nasldan-naslga o‘tadigan tabiiy hayotiy kuchlar va organizmlarning tuzilishi, inson jismoniy rivojlanishi uchun asos bo‘ladi. Lekin jismoniy rivojlanishning yo‘nalishi, uning xarakteri, darajasi, shuningdek, inson o‘zida kamol toptiradigan fazilatlar va qobiliyat turmush sharoitlari va tarbiyaga ko‘p jihatdan bog‘liqdir” [6,1].

Olib borilgan tahlillar natijasida o‘quvchilarda motivatsiya dinamikasining o‘zgaruvchanligi kuzatiladi. Statistikaga ko‘ra, agar o‘quvchi o‘zining qiziqishi, shaxsiy istagi va manfaat ko‘rish ehtiyojidan kelib chiqqan holda sport bilan shug‘ullansa yoki o‘zining jismoniy imkoniyati va irodasini namoyon qilishga intilsa natijalar o‘suvchan va ijobiy bo‘ladi. Natijada ularda jismoniy sifatlari tez va yuqori darajada namoyon bo‘ladi. “Jismoniy tarbiya kishilarga katta ta’sir ko‘rsatib, salomatligini mustahkamlaydi, ishlash qobiliyatini oshiradi, uzoq umr ko‘rishga yordam beradi. Sport har qanday yoshda ham qaddi-qomatni tarbiya qilish kuch-quvvatni saqlab turishning ajoyib vositasi-dir. Sport dam olish bilan mehnatni almashtirib turish manbai bo‘lib xizmat qiladi. O‘quvchilarning jismoniy madaniyatga ega bo‘lishlari jismoniy tarbiya samaradorligini belgilovchi muhim omil sanaladi” [7]. Shuning uchun ham o‘quvchilarning qiziqishlari va istaklaridan kelib chiqqqan holda sportga yo‘naltirish, jismoniy mashqlarga olib kirish va shu orqali ulardagi milliy g‘urur tuyg‘usini o‘stirish maqsadga muvofiq bo‘ladi. Natijada o‘tiladigan jismoniy tarbiya va sport doirasidagi dars mashg‘ulotlarning ta’sirida o‘quvchilardagi sportga qiziqish kashf qilinadi.

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishning samaradorligini belgilaydigan asosiy pedagogik shartlar quyidagilar:

shaxsiy va madaniy yondashuvlar;

jismoniy tarbiyada o‘quv jarayonining professional yo‘naltirilganligi;

jismoniy tarbiya sohasida ilmiy va amaliy bilim, ko‘nikmalarga oid fundamental va amaliy tomonlarning ifodalanishi;

madaniy qadriyatlarni egallash bo‘yicha faoliyatning predmeti sifatida o‘quvchining qarashlarining pedagogik ta’sirini individual va guruhli shakllarining birligi;

jismoniy tarbiya qadriyatlarini mazmunli hayotiy holatiga aylantirish va ichki moslashtirish.

Tadqiqot natijalari. Tadqiqot jarayoni shuni ko‘rsatadiki, sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish muammodir. Bu sohada salbiy hodisalar barqaror tendensiyani saqlab qolmoqda, bu esa jismoniy tarbiyaga nisbatan deklarativ va haqiqiy qiziqish ifoda etiladi. O’quvchilarni sog‘ligi, jismoniy rivojlanishi va sog‘lom turmush tarzida, ularning jismoniy va psixologik rivojlanishi uchun qayg‘urish va boshqa holatlarda o‘zlari birinchi navbatda qadriyat sifatida qarashlarida namoyon bo‘ladi.

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishga yo‘nalgan, rag‘batlantirilgan, amalda qo‘llanilganda jismoniy tarbiyaga nisbatan milliy munosabat diagnostikasida:

qadriyatga yo‘naltirilganlik;

faollikni rag‘batlantirish manbalari;

dars paytida qo‘yilgan jismoniy topshiriq;

jismoniy tarbiya borasida to‘plangan amaliy tajribalar diqqat markazida turadi.

Demak, sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirishda jismoniy tarbiya darslari, jismoniy tarbiya sohasidagi nazariy bilim va ko‘nikmalari, jismoniy mashqlar vositasida shakllangan turli amaliy ko‘nikmalar va boshqalar sezilarli ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida

o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish bosqichlari o‘quvchilarning sport mashg‘ulotlarida ham jismonan, ham ma’nan yetuk, komil inson bo‘lib, kamol topishlari uchun turtki bo‘ladi. O‘z-o‘zidan ayon bo‘lmoqdaki, o‘quvchilar hayotida milliy g‘ururni tuyg‘usini rivojlanishi juda katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa. Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usiga chuqur munosabatlarini anglash, ta’lim jarayonida ularni rivojlantirishda eng samarali usul milliy g‘urur tuyg‘usini mazmun va mohiyatini oqilona o‘rganishdir. Sinfdan tashqari sport mashg‘ulotlarida o‘quvchilarning milliy g‘urur tuyg‘usini rivojlantirish, har tomonlama mukammal shaxs bo‘lib ulg‘ayishlarida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, salomatlikni mustahkamlash, sog‘lom turmush tarzini targ‘ib qilishda yangicha yondashuvda ta’lim berish zarurdir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. – Toshkent: O‘zbekiston; 2020. // https://lex.uz/docs/3107036

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5924-sonli Farmoni // https //:lex.uz/docs

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6108-sonli Farmoni // https //:lex.uz/docs

4. Mirziyoyev Sh. Yangi O‘zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021. 257 b.

5. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogika. – Toshkent: O‘zbekiston. 2010. 406 b.

6. Эрдонов О.Л. Оздоровительная физическая культура и система образовательного процесса по физическому воспитанию студентов. Учебное пособие. – Ташкент: 2012. 178 с.

7. Саломов Р.С. Проблемы высшего физического воспитания. Монография; - Ташкент; 1992. 168 с.